

**O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligi  
obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat  
qilish inspeksiyasi to‘g‘risida  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasining (keyingi o‘rinlarda – Inspeksiya) maqomini, asosiy vazifalarini, funksiyalarini, huquq va majburiyatlarini, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Inspeksiya O‘zbekiston Respublikasidagi o‘ta muhim gidrotexnika inshootlari xavfsizligi hamda yer usti suvlari obyektlarida suvning oqilona boshqarilishi, suvdan foydalanish va suv iste‘moli qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladigan organ hisoblanadi.

3. Inspeksiya o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligiga (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) bo‘ysunadi va unga hisobot beradi.

4. Inspeksiya o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirining buyruqlariga va mazkur Nizomga amal qiladi.

5. Inspeksiya o‘z faoliyatini Vazirlik rahbarligida, shuningdek, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

6. Inspeksiyaning qonunchilik hujjatlari va o‘z vakolati doirasida qabul qilgan qarorlari va ko‘rsatmalari respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

7. Inspeksiya hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar boshqarmalari yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga, blankalarga, mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga ega bo‘ladi.

8. Inspeksiyaning rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to‘liq nomi – O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi;  
qisqartirilgan nomi – “Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi;

b) rus tilida:

to‘liq nomi – Inspeksiya po kontrolyu za bezopasnostyu obyektoy vodnogo xozyaystva i vodopolzovaniyem pri Ministerstve vodnogo xozyaystva Respubliki Uzbekistan;

qisqartirilgan nomi – inspeksiya “Vodxoznadzor”;

v) ingliz tilida:

to‘liq nomi – Inspection for control of safety and water use of water management facilities under the Ministry of Water Management of the Republic of Uzbekistan;

qisqartirilgan nomi – “Watermanaginspection”.

## **2-bob. “Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasining tizimi**

9. Inspeksiya tizimiga quyidagilar kiradi:

Inspeksiyaning markaziy apparati;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda – hududiy boshqarmalar);

“Gidrotexnika inshootlarining diagnostikasi markazi” davlat unitar korxonasi (keyingi o‘rinlarda – Diagnostika markazi).

## **3-bob. “Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va uning hududiy boshqarmalari vazifalari hamda funksiyalari**

### **“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasining asosiy vazifalari va funksiyalari**

10. Quyidagilar Inspeksiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

o‘ta muhim gidrotexnika inshootlarining xavfsizligini, ishonchli ishlashini hamda qo‘riqlanishini nazorat qilish;

o‘ta muhim gidrotexnika inshootlarini joylashtirish va loyihalashtirish bo‘yicha topshiriqlarni hamda ulardan foydalanish bo‘yicha qoidalarini kelishish, shuningdek, ularning xavfsizligi qoidalarini ishlab chiqish va mezonlarini belgilash;

o‘ta muhim gidrotexnika inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish, foydalanishga qabul qilish, konservatsiyalash va tugatish ishlarida ishtirok etish hamda tegishli xulosalar berish;

er usti suvlari obyektlarida suvning oqilona boshqarilishi, suvdan foydalanish va suv iste‘moli qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish;

irrigatsiya tizimlari va sug‘orish tarmoqlaridan foydalanish jarayonida ularning barqaror ishlashini nazorat qilish;

huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish choralarini ko‘rish yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar yuritilishini nazorat qilish.

Inspeksiya qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.

11. Inspeksiya o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

tegishli vazirliklar, idoralar va tashkilotlar bilan birgalikda gidrotexnika inshootlarining texnik holati hamda bexatar ishlashi bilan bog‘liq hodisalarning oldini olishga doir takliflarni ishlab chiqadi;

gidrotexnika inshootlarining holatini va ularning xavfsizlik deklaratsiyalariga va mezonlariga muvofiqligini tekshirishni tashkil etadi;

gidrotexnika inshootlarining texnik holatini joyida o'rganish, naturada kuzatish va diagnostika qilish ishlarini amalga oshiradi;

tegishli vazirliklar, idoralar va tashkilotlar bilan birgalikda davlatlararo va chegaraviy suv xo'jaligi obyektlaridan foydalanish masalalarini chegaradosh davlatlar bilan tartibga solishda ishtirok etadi;

gidrotexnika inshootlari xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi;

xo'jalik faoliyatini yoki boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun gidrotexnika inshootlari hududlaridan, daryolar o'zanlari va ularga tutash inshootlarning quyi va yuqori hududlaridan (suv muhofazasi zonalarida yer uchastkalari berish bundan mustasno) foydalanishni kelishadi;

vakolatli organlarga suv muhofazasi zonalarini, suv omborlari, daryolar, kanallar va kollektorlarning sohilbo'yi mintaqalarini belgilash ishlarini tashkil etishda ko'maklashadi, ushbu zonalar va chiziqlarga qo'yiladigan talablarning bajarilishini nazorat qiladi;

gidrotexnika inshootlarini joylashtirish va ularning loyihalarini ishlab chiqishga doir texnik topshiriqlarni hamda foydalanish bo'yicha qoidalarni kelishadi;

gidrotexnika inshootlarining xavfsizlik deklaratsiyalarini davlat ekspertizasidan o'tkazadi va belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

gidrotexnika inshootlari kadastrini yuritadi;

gidrotexnika inshootlarining xavfsizlik qoidalarini ishlab chiqadi va mezonlarini belgilaydi;

gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi sohasida qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

gidrotexnika inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlarini loyiha, buyurtmachi va pudrat tashkilotlari hamda tegishli vazirliklar, idoralar va tashkilotlar mutaxassislarini jalb etgan holda o'rganadi hamda tegishli taklif va xulosalar beradi;

gidrotexnika inshootlarini foydalanishga qabul qilish bo'yicha ishchi va Davlat komissiyalari tarkibida ishtirok etadi hamda tegishli taklif va xulosalar beradi;

gidrotexnika inshootlarini konservatsiyalash va tugatish bo'yicha loyihalarni o'rganib chiqadi hamda tegishli taklif va xulosalar beradi;

suvdan foydalanish va suv iste'moli bo'yicha belgilangan tartibga suv xo'jaligi tashkilotlari va boshqa suvdan foydalanuvchilar, shuningdek, fermer va dehqon xo'jaliklari va boshqa suv iste'molchilari tomonidan qat'iy rioya etilishini nazorat qiladi;

suv xo'jaligi obyektlaridan suv olish limitlari (vegetatsiya va novegitatsiya davri uchun) tasdiqlanganligi, ularga rioya qilinishi hamda suvdan foydalanish va suv iste'moli qoidalariga amal qilinishini nazorat qiladi;

suv obyektlaridan olinadigan va ularga quyiladigan dastlabki suv miqdorining hisobi to'g'ri va aniq yuritilishini o'rganadi;

suv resurslaridan tejamli va oqilona foydalanish uchun suvdan foydalanuvchilar hamda suv iste'molchilari javobgarligini kuchaytirish, suvdan foydalanish madaniyati darajasini oshirish bo'yicha zarur choralar ko'rilishini nazorat qiladi;

suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy qilingan maydonlarda ushbu texnologiyalardan maqsadli va samarali foydalanilishini ish rejasi asosida nazorat qiladi;

irrigatsiya va melioratsiya tizimlari, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari, suv omborlari, nasos stansiyalari hamda boshqa suv xo'jaligi obyektlarida suv resurslarining samarali boshqarilishini nazorat qiladi;

hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarining tasdiqlangan suv olish limitlari bo'yicha suv resurslari bilan ta'minlanishi, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash choralari ko'rilishini nazorat qiladi;

irrigatsiya tizimlari va sug'orish tarmoqlarining holatiga ta'sir etuvchi omillarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini nazorat qiladi;

suv resurslari, irrigatsiya tizimlari va sug'orish tarmoqlaridan xo'jasizlarcha foydalanishning oldini olish bo'yicha zarur choralar ko'rilishini nazorat qiladi;

vakolati doirasidagi ishlar bo'yicha tekshiruvlar o'tkazadi;

suv resurslarining isrofgarchiligi, gidrotexnika, melioratsiya inshootlaridan foydalanish holatlarini o'rganadi;

aniqlangan ma'muriy huquqbuzarliklar yuzasidan ma'muriy jazolar qo'llash bo'yicha bayonnomalar rasmiylashtiradi;

normativ-huquqiy hujjatlar talablari buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida mansabdor shaxslarni yozma ravishda ogohlantiradi;

davlat organlari va tashkilotlariga, shuningdek, idoraviy bo'ysunuvidan va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, yuridik shaxslar va ularning mansabdor shaxslariga hamda jismoniy shaxslarga bajarilishi majburiy bo'lgan yozma ko'rsatmalar beradi;

sohada qonun buzilishi holatlarini hamda ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan o'z vakolati doirasida idoraviy bo'ysunuvidan va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritadi;

ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritadi, Inspeksiya vakolati doirasidagi ishlarni ko'rib chiqadi va ma'muriy jazolar qo'llaydi;

suvdan foydalanuvchilar va suv iste'molchilari tomonidan suv olish tartibi buzilganligi uchun jarima sanksiyalari qo'llaydi;

ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish amaliyotini tahlil qiladi, ularning hisobini yuritadi hamda ushbu sohada yagona amaliyotni shakllantiradi.

Inspeksiya qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

12. Inspeksiya o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bevosita yoki hududiy boshqarmalar hamda Diagnostika markazi orqali amalga oshiradi.

### **“Suvxo'jaliknazorat” inspeksiyasi markaziy apparatining asosiy vazifalari va funksiyalari**

13. Quyidagilar Inspeksiya markaziy apparatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

hududiy boshqarmalar hamda Diagnostika markazi bilan birgalikda Inspeksiyaga yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishini ta'minlash;

Inspeksiya markaziy apparati, hududiy boshqarmalar hamda Diagnostika markazi faoliyati samaradorligi va natijadorligini tanqidiy tahlil qilish va tahlil natijalari asosida zarur choralar ko'rish;

gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi va suvdan foydalanish sohasidagi qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda Vazirlikka kiritish.

Inspeksiya markaziy apparati qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.

14. Inspeksiya markaziy apparati quyidagi asosiy funksiyalarni amalga oshiradi:

Inspeksiya va uning rahbariyati faoliyatini tashkiliy va axborot-tahlil jihatidan ta'minlaydi;

hududiy boshqarmalar hamda Diagnostika markazi faoliyati bilan bog'liq prognoz ko'rsatkichlarga erishilishini so'zsiz ta'minlash bo'yicha amaliy choralar ko'radi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni tashkil etadi;

xalqaro hamkorlikni tashkil etadi;

hududiy boshqarmalar hamda Diagnostika markazi tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vazirining buyruqlari bajarilishini tizimli nazorat qiladi;

hududiy boshqarmalar hamda Diagnostika markazi faoliyatini muvofiqlashtiradi va metodik nazorat qiladi;

Inspeksiya o'z vakolati doirasida tegishli tezkor, tashkiliy, kadrlar, moliyaviy va boshqa masalalarni hal qiladi.

Inspeksiya markaziy apparati qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **Hududiy boshqarmalarning asosiy vazifalari va funksiyalari**

15. Quyidagilar hududiy boshqarmalarning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Inspeksiyaga yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishini ta'minlashda ishtirok etish;

o'ta muhim gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi, ishonchli ishlashi hamda qo'riqlanishi bo'yicha nazorat o'rnatish;

o'ta muhim gidrotexnika inshootlarini joylashtirish va ularning loyihalarini ishlab chiqishga oid texnik topshiriqlarni kelishish;

o'ta muhim gidrotexnika inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish, foydalanishga qabul qilish, konservatsiyalash va tugatish ishlarida ishtirok etish hamda tegishli xulosalar berish;

er usti suvlari obyektlarida suvning oqilona boshqarilishi, suvdan foydalanish va suv iste'moli qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish;

irrigatsiya tizimi va sug'orish tarmoqlaridan foydalanish jarayonida ularning barqaror ishlashini nazorat qilish.

Hududiy boshqarmalar qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.

16. Hududiy boshqarmalar quyidagi asosiy funksiyalarni amalga oshiradi:

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarini, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vaziri va Inspeksiya boshlig'ining buyruqlarini bajaradi;

mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, suv xo'jaligi obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlar, tegishli idoralar va tashkilotlar bilan birgalikda o'ta muhim gidrotexnika inshootlarining texnik holati hamda bexatar ishlashi bilan bog'liq hodisalarning oldini olishga oid takliflar ishlab chiqadi;

gidrotexnika inshootlarining texnik holati hamda bexatar ishlashi bo'yicha inspektorlik tekshiruvlari o'tkazadi;

gidrotexnika inshootlarining holati va ularning xavfsizlik deklaratsiyalariga muvofiqligini tekshiradi;

gidrotexnika inshootlarining texnik holati hamda bexatar ishlashini o'rganish bo'yicha hududiy ishchi guruhlar ishida ishtirok etadi;

gidrotexnika inshootlarining xavfsizlik deklaratsiyalari belgilangan tartibda sifatli ishlab chiqilishi va ekspertizaga taqdim etilishini nazorat qiladi;

gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi va suvdan foydalanish sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ishtirok etadi;

xo'jalik faoliyatini yoki boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun gidrotexnika inshootlari hududlaridan, daryo o'zanlari va ularga tutash inshootlarning quyi va yuqori hududlaridan (suv muhofazasi zonalaridan yer uchastkalarini berish bundan mustasno) foydalanishni kelishadi;

vakolatli organlarga suv muhofazasi zonalari, suv omborlari, sel-suv omborlari, daryolar, kanallar va kollektorlarning sohilbo'yi mintaqalarini belgilash ishlarini tashkil etishda ko'maklashadi, ushbu zona va chiziq'larga qo'yiladigan talablarning bajarilishini nazorat qiladi;

gidrotexnika inshootlarida avariya holatlari va tabiiy ofatlarni bartaraf etish ishlarida ishtirok etadi;

suvdan foydalanish va suv iste'moli bo'yicha belgilangan tartibga suv xo'jaligi tashkilotlari va boshqa suvdan foydalanuvchilar, shuningdek, fermer va dehqon xo'jaliklari va boshqa suv iste'molchilari tomonidan qat'iy rioya etilishini nazorat qiladi;

suv xo'jaligi obyektlaridan suv olish limitlari (vegetatsiya va novegetatsiya davri uchun) tasdiqlanganligi, ularga rioya qilinishi hamda suvdan foydalanish va suv iste'moli qoidalariga amal qilinishini nazorat qiladi;

suv obyektlaridan olinadigan va ularga quyiladigan dastlabki suv miqdorining hisobi to'g'ri va aniq yuritilishini o'rganadi;

suv resurslaridan tejamli va oqilona foydalanish uchun suvdan foydalanuvchilar hamda suv iste'molchilari javobgarligini kuchaytirish, suvdan

foydalanish madaniyati darajasini oshirish yuzasidan zarur choralar ko‘rilishini nazorat qiladi;

irrigatsiya va melioratsiya tizimlari, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari, suv omborlari, nasos stansiyalari hamda boshqa suv xo‘jaligi obyektlarida suv resurslarining samarali boshqarilishini nazorat qiladi;

hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarining tasdiqlangan suv olish limitlari bo‘yicha suv resurslari bilan ta‘minlanishi, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash choralari ko‘rilishini nazorat qiladi;

irrigatsiya tizimlari va sug‘orish tarmoqlarining holatiga ta‘sir etuvchi omillarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini nazorat qiladi;

suv resurslari, irrigatsiya tizimlari va sug‘orish tarmoqlaridan xo‘jasizlarcha foydalanishning oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rilishini nazorat qiladi;

huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish choralari ko‘rish yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarning yuritilishini nazorat qiladi;

vakolati doirasidagi ishlar bo‘yicha tekshiruvlar o‘tkazadi;

suv resurslarining isrofgarchiligi, gidrotexnika, melioratsiya inshootlaridan foydalanish holatlarini o‘rganadi;

normativ-huquqiy hujjatlar talablari buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik haqida mansabdor shaxslarni yozma ravishda ogohlantiradi;

davlat organlari va tashkilotlariga, shuningdek, idoraviy bo‘ysunuvi va mulkchilik shakllaridan qat‘i nazar, yuridik shaxslar va ularning mansabdor shaxslariga hamda jismoniy shaxslarga bajarilishi majburiy bo‘lgan yozma ko‘rsatmalar beradi;

sohada qonun buzilishi holatlarini hamda ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan o‘z vakolati doirasida idoraviy bo‘ysunuvi va mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ijro etilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritadi;

ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritadi, o‘z vakolati doirasidagi ishlarni ko‘rib chiqadi va ma‘muriy jazolar qo‘llaydi;

suvdan foydalanuvchilar va suv iste‘molchilari tomonidan suv olish tartibi buzilganligi uchun jarima sanksiyalari qo‘llaydi;

ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish amaliyotini tahlil qiladi, ularning hisobini olib boradi hamda ushbu sohada yagona amaliyotni shakllantiradi.

Hududiy boshqarmalar qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

#### **4-bob. “Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va uning hududiy boshqarmalari huquqlari va javobgarligi**

##### **“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasining huquqlari va javobgarligi**

17. Inspeksiya o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Inspeksiyaga yuklangan vazifalarni bajarish uchun davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi tuzilmalardan zarur bo'lgan axborot, hujjatlar va boshqa materiallarni bepul olish;

gidrotexnika inshootlariga moneliksiz kirish, ularning xavfsizligi va ishonchli ishlashi yuzasidan texnik nazoratni tashkil etish masalalari, ularning qo'riqlanishi hamda muhofaza zonalari va sohilbo'yi mintaqalari belgilanganligi to'g'risidagi materiallar bilan tanishish;

o'z vakolati doirasida qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli vazirliklar, idoralar va tashkilotlar tomonidan gidrotexnika inshootlaridan foydalanishning texnik va xavfsizlik holati bo'yicha nazorat o'rnatilganligini tekshirish;

gidrotexnika inshootlarining holati, ulardan foydalanish va ularning xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq masalalar yuzasidan tegishli vazirliklar, idoralar va tashkilotlar rahbarlari axborotini eshitish;

tegishli vazirliklar, idoralar va tashkilotlardan gidrotexnika inshootlari texnik holatining ishonchliligi, ulardan foydalanish va ularning xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq masalalar bo'yicha qonunchilik hujjatlari, tadbirlar rejalari, buyruqlar, yo'riqnomalar, ma'lumotlar va boshqa materiallarni talab qilish va olish, zarurat bo'lganda, vazirliklar va idoralar mutaxassislarini jalb etish;

o'ta muhim gidrotexnika inshootlarini texnik soz holatda saqlash va muhofaza qilish, ularning xavfsizligini va ishonchli ishlashini ta'minlash hamda aniqlangan kamchiliklarni, shuningdek, ularning kelib chiqishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida tegishli vazirliklar, idoralar va tashkilotlarga bajarilishi shart bo'lgan ko'rsatmalar kiritish;

gidrotexnika inshootlari xavfsizligi normalari va qoidalari qo'pol ravishda buzilgan holatlarda gidrotexnika inshootlarini loyihalashtiruvchi, quruvchi va ulardan foydalanuvchi tashkilotlarga ko'rsatmalar berish va ularni bajarmagan taqdirda, loyihalashtirish, qurish va foydalanishni vaqtincha to'xtatish to'g'risida takliflar kiritish;

o'ta muhim gidrotexnika inshootlaridan foydalanish yoxud daryolar o'zanlari va ularga tutash inshootlarning quyi va yuqori hududlarida xo'jalik va boshqa faoliyatni amalga oshirayotgan tashkilotlar faoliyatini, agar mazkur faoliyat gidrotexnika inshootlarining xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, belgilangan tartibda taqiqlash yoki cheklash;

o'ta muhim gidrotexnika inshootlaridan foydalanuvchi tashkilotlar rahbarlari va xavfsizlik talablari uchun mas'ul bo'lgan rahbar-mutaxassislarning malakasini oshirish bo'yicha yuqori turuvchi idoralarga takliflar kiritish;

Inspeksiyaga yuklangan vazifalarni bajarish uchun davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi tuzilmalardan zarurat bo'lganda axborot, hujjatlar va boshqa materiallarni bepul olish;

tekshirish va tahlillar davomida aniqlangan holatlarga aniqlik kiritish yoki qonun buzilishi holatlari yuzasidan idoraviy bo'ysunuvidan va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mansabdor shaxslari hamda xodimlaridan og'zaki va yozma tushuntirishlar talab qilish;

tekshirish va tahlillar davomida aniqlangan holatlarga aniqlik kiritish maqsadida idoraviy bo'ysunuvidan va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar,



muassasalar va tashkilotlarning mansabdor shaxslari hamda xodimlarini jalb etish, qonun buzilishi holatlari yuzasidan og‘zaki va yozma tushuntirishlar talab qilish;

zarur hollarda, davlat organlari va nazorat qiluvchi organlar xodimlarini hamda ularning vositalarini o‘z funksiyalarini bajarish jarayonida jalb etish;

suvdan foydalanish sohasiga oid qonunchilik hujjatlari va normativ hujjatlar talablari bajarilishini nazorat qilish;

yuklangan boshqa vazifalarni samarali amalga oshirish.

Inspeksiya qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

18. Inspeksiya o‘ziga yuklangan vazifalarning samarali bajarilishi uchun javobgardir.

### **“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi markaziy apparatining huquqlari va javobgarligi**

19. Inspeksiya markaziy apparati o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

hududiy boshqarmalar hamda Diagnostika markazidan Inspeksiya markaziy apparatida ko‘rib chiqiladigan masalalarni tahlil qilish va ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan materiallar va ma‘lumotlarni so‘rash va olish;

Inspeksiyada ko‘rib chiqiladigan masalalarni ishlab chiqish, axborot va tahliliy materiallar, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlarni tayyorlash uchun belgilangan tartibda hududiy boshqarmalar hamda Diagnostika markazi rahbarlari va vakillarini jalb qilish, bu maqsadlarda ekspert va ishchi guruhlarini tuzish;

hududiy boshqarmalar hamda Diagnostika markazi rahbarlari va vakillari ishtirokida yig‘ilishlar o‘tkazish;

tezkor hal etish talab qilinadigan va Inspeksiyaga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha belgilangan tartibda hududiy boshqarmalarga hamda Diagnostika markazi rahbariga topshiriq berish;

hududiy boshqarmalar hamda Diagnostika markazi rahbari tomonidan markaziy apparat va uning rahbariyati topshiriqlari bajarilishini belgilangan tartibda o‘rganish va tekshirish.

Inspeksiya markaziy apparati qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

20. Inspeksiya markaziy apparati:

hududiy boshqarmalar bilan birgalikda Inspeksiyaga yuklangan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o‘z vaqtida samarali bajarilishi, markaziy apparat xodimlari ishini tashkil etish, Inspeksiya faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlarga erishishni ta‘minlash;

gidrotexnika inshootlari xavfsizligi va suvdan foydalanish bo‘yicha nazorat tizimini rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va boshqa muammoli masalalar bo‘yicha dasturlar, tadbirlar rejalari, “yo‘l xaritalar”ning bajarilishi va o‘ziga yuklangan vazifalarning samarali amalga oshirilishi uchun javobgardir.

## **Hududiy boshqarmalarning huquqlari va javobgarligi**

21. Hududiy boshqarmalar o'zlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Inspeksiya markaziy apparati, tegishli idoralar va tashkilotlardan o'zlariga yuklangan vazifalarni kompleks amalga oshirish uchun zarur bo'lgan materiallarni olish;

gidrotexnika inshootlariga moneliksiz kirish, ularning xavfsizligi va ishonchli ishlashi yuzasidan texnik nazoratni tashkil etish masalalari, ularning qo'riqlanishi hamda muhofaza zonolari va sohilbo'yi mintaqalari belgilanganligi to'g'risidagi materiallar bilan tanishish;

rejali inspektorlik tekshiruvlarini o'tkazish uchun "Suvxo'jaliknazorat" davlat inspeksiyasi markaziy apparati mutaxassislarini jalb qilish;

gidrotexnika inshootlarini texnik soz holatda saqlash va muhofaza qilish, ularning xavfsizligini va ishonchli ishlashini ta'minlash hamda aniqlangan kamchiliklarni, shuningdek, ularning kelib chiqishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida bajarilishi shart bo'lgan ko'rsatmalar kiritish;

gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi normalari va qoidalari qo'pol ravishda buzilgan holatlarda gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish va ulardan foydalanishni vaqtincha to'xtatish to'g'risida takliflar kiritish;

gidrotexnika inshootlaridan foydalanish yoxud daryolar o'zanlari va ularga tutash inshootlarning quyi va yuqori hududlarida xo'jalik va boshqa faoliyatni amalga oshirayotgan tashkilotlar faoliyatini, agar mazkur faoliyat gidrotexnika inshootlarining xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, belgilangan tartibda taqiqlash yoki cheklash;

gidrotexnika inshootlaridan foydalanuvchi tashkilotlar rahbarlari va xavfsizlik talablari uchun mas'ul bo'lgan rahbar-mutaxassislarning malakasini oshirish bo'yicha Inspeksiyaga takliflar kiritish;

Inspeksiyaga yuklangan vazifalarni bajarish uchun davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi tuzilmalardan zarur bo'lgan axborot, hujjatlar va boshqa materiallarni bepul olish;

tekshirish va tahlillar davomida aniqlangan holatlarga aniqlik kiritish yoki qonun buzilishi holatlari yuzasidan idoraviy bo'ysunuvidan va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mansabdor shaxslari hamda xodimlaridan og'zaki va yozma tushuntirishlar talab qilish;

tekshirish va tahlillar davomida aniqlangan holatlarga aniqlik kiritish maqsadida idoraviy bo'ysunuvidan va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mansabdor shaxslari hamda xodimlarini jalb etish, qonun buzilishi holatlari yuzasidan og'zaki va yozma tushuntirishlar talab qilish;

davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko'zlab berilgan da'volar hamda arizalar yuzasidan davlat bojisiz sudga yoki boshqa organga murojaat etish;

zarur hollarda, davlat organlari va nazorat qiluvchi organlar xodimlarini hamda ularning vositalarini o'z funksiyalarini bajarish jarayonida jalb etish;

suv xo'jaligiga oid qonunchilik hujjatlari va normativ hujjatlar talablari bajarilishini nazorat qilish;

yuklangan boshqa vazifalarni samarali amalga oshirish.

Hududiy boshqarmalar qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

22. Hududiy boshqarmalar:

Inspeksiya markaziy apparati bilan birgalikda Inspeksiyaga yuklangan vazifalar va funksiyalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

gidrotexnika inshootlari xavfsizligi va suvdan foydalanish bo'yicha nazorat tizimini rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va boshqa muammoli masalalar bo'yicha dasturlar, tadbirlar rejalari, "yo'l xaritalar"ning bajarilishi va o'ziga yuklangan vazifalarning samarali amalga oshirilishi uchun javobgardir.

### **5-bob. "Suvxo'jaliknazorat" inspeksiyasi rahbarlarining asosiy funksional vazifalari**

23. Quyidagilar Inspeksiya boshlig'ining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etish;

Inspeksiya faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining tegishli hujjatlari hamda boshqa qonunchilik hujjatlari bilan Inspeksiyaga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish;

Inspeksiya, shuningdek, hududiy boshqarmalar hamda Diagnostika markazi faoliyatiga tegishli prognoz ko'rsatkichlarga so'zsiz erishishni ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarning ishlab chiqilishini tashkil etish va amalga oshirish;

o'z o'rinbosarining vakolatlarini belgilash, Inspeksiya boshqa mansabdor shaxslari vakolatlarini belgilash, o'z o'rinbosari va boshqa mansabdor shaxslarning Inspeksiya faoliyatining alohida qismlariga rahbarlik qilishi uchun ularning shaxsiy mas'uliyat darajalarini belgilash;

Inspeksiya faoliyatini rejalashtirishni tashkil etish, uzoq muddatli va joriy ish rejalari, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish prognozlarini tasdiqlash, ularning bajarilishini nazorat qilish;

Inspeksiya tizimida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, ularning samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, Inspeksiyaning kadrlar zaxirasini shakllantirish;

Inspeksiya vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha buyruqlar chiqarish, ko'rsatmalar berish va zarur hollarda boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda tegishli qarorlarni qabul qilish;

Inspeksiya rahbarlari va xodimlarining xizmat safarlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralari to'g'risida" 2014-yil 5-martdagi PQ-2142-son va "Xorijiy xizmat safarlarida bo'lish samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarning O'zbekiston Respublikasiga tashriflarini tashkil etish uchun mansabdor shaxslarning shaxsiy mas'uliyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 3-avgustdagi PQ-3170-son qarorlari talablariga to'liq mos ravishda amalga oshirish va

tashkil etish, xizmat safarlarining asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, safar uchun ajratiladigan mablag'lardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta'minlash;

Inspeksiya xodimlari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari asosida tasdiqlangan Inspeksiya xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya etilishini nazorat qilish;

Inspeksiya xodimlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal qilish;

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq Inspeksiya tizimida korrupsiya va boshqa qonunbuzarliklarning oldini olish choralari ko'rish, shuningdek, huquq amaliyoti va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish yo'li bilan ularni aniqlash, tahlil qilish, ularni yuzaga keltiruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish doirasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha ishlarni O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomga muvofiq samarali tashkil etish, jamoatchilik bilan bevosita va ochiq muloqot o'rnatish, shaxsiy qabullarni muntazam ravishda o'tkazish, shu jumladan, jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini joylarga borib qabul qilishni belgilangan muddatda va tartibda amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlikni, ularning faoliyatida Inspeksiya xodimlari va rahbarlarining faol ishtirok etishini tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasidan tushgan murojaatlari o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqilishini ta'minlash;

davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish;

markaziy apparat xodimlari, hududiy boshqarmalari hamda Diagnostika markazi rahbarlarini belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ular bilan mehnat shartnomasini bekor qilish;

Diagnostika markazi ustavi va shtat jadvalini tasdiqlash;

o'z vakolati doirasida Inspeksiya xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;

Inspeksiyaga yuklangan vazifalar ijrosini ta'minlash doirasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar, loyiha tashkilotlari, ilmiy va ta'lim muassasalari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va xorijiy kompaniyalarning yuqori malakali mutaxassislarini ekspert sifatida jalb qilish;

zarur hollarda, vazirning kelishuv xatiga asosan xodimlarning shtatdagi belgilangan umumiy soni doirasida Inspeksiya tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish.

Inspeksiya boshlig'i qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksional vazifalarga ham ega bo'lishi mumkin.

24. Quyidagilar Inspeksiya boshlig'i o'rinbosarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etish;

Inspeksiya boshlig'i vaqtincha ishda bo'lmaganda, tegishli buyruq asosida uning vazifalarini bajarish;

Inspeksiyaning o'zi nazorat qiladigan tarkibiy bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va bevosita boshqarish, ularning xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash;

o'zi nazorat qiladigan tarkibiy bo'linmalar tomonidan prognoz ko'rsatkichlarning so'zsiz bajarilishini ta'minlash choralari ko'rish, bo'linmalar rahbarlarining hisobotlarini muntazam ravishda eshitib borish va ushbu ko'rsatkichlarga erishish uchun ularning shaxsiy mas'uliyatini oshirish;

o'zi nazorat qiladigan tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi yuzasidan nazoratni ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari ijrosini ta'minlash, o'zi nazorat qiladigan tarkibiy bo'linmalarda ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoniga va "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qaroriga muvofiq tarkibiy bo'linma rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish choralari ko'rish;

Inspeksiyaning yig'ilish qarorlari, Inspeksiya boshlig'ining buyruqlari va topshiriqlari o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-maydagi 322-son qarori bilan tasdiqlangan Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar va ma'muriy huquqbuzarlik yo'li bilan ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetkazilgan shaxslarni markazlashtirilgan hisobga olish tartibi to'g'risidagi nizom talablari asosida ishlarni amalga oshirish;

xizmat safarlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralari to'g'risida" 2014-yil 5-martdagi PQ-2142-son va "Xorijiy xizmat safarlarida bo'lish samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarning O'zbekiston Respublikasiga tashriflarini tashkil etish uchun mansabdor shaxslarning shaxsiy mas'uliyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 3-avgustdagi PQ-3170-son qarorlari talablariga to'liq mos ravishda amalga oshirish, xizmat safarlarining asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, safar uchun ajratiladigan mablag'lardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta'minlash.

Inspeksiya boshlig'i o'rinbosari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksional vazifalarga ham ega bo'lishi mumkin.

25. Quyidagilar Inspeksiya markaziy apparati xodimlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etish;

Inspeksiya markaziy apparatiga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishini tashkil etish;

o'z vakolatlari doirasida hududiy boshqarmalar hamda Diagnostika markazi faoliyatini muvofiqlashtirish;

prognoz ko'rsatkichlarning bajarilishini muntazam tahlil qilish, hududiy boshqarmalar hamda Diagnostika markazi ushbu ko'rsatkichlarga so'zsiz erishishni ta'minlashiga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha takliflarni Inspeksiya boshlig'i o'rinbosariga kiritish;

Inspeksiyaning yig'ilish qarorlari, boshliq va uning o'rinbosarining buyruqlari va topshiriqlari o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

xodimlarning har choraklik ish rejalari ishlab chiqilishini, ularning tasdiqlash uchun kiritilishini, ularda ko'rsatilgan vazifalar va tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

xodimlar faoliyatiga oid masalalar yuzasidan qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va ko'rib chiqish uchun Inspeksiya rahbariyatiga kiritish;

xizmat safarlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralari to'g'risida" 2014-yil 5-martdagi PQ-2142-son va "Xorijiy xizmat safarlarida bo'lish samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarning O'zbekiston Respublikasiga tashriflarini tashkil etish uchun mansabdor shaxslarning shaxsiy mas'uliyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 3-avgustdagi PQ-3170-son qarorlari talablariga to'liq mos ravishda amalga oshirish, xizmat safarlarining asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, xizmat safari uchun ajratiladigan mablag'lardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta'minlash;

Inspeksiya xodimlari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari asosida tasdiqlangan Inspeksiya xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya etilishini nazorat qilish;

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-maydagi 322-son qarori bilan tasdiqlangan Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar va ma'muriy huquqbuzarlik yo'li bilan ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetkazilgan shaxslarni markazlashtirilgan hisobga olish tartibi to'g'risidagi nizom talablari asosida ishlarni amalga oshirish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomga muvofiq ko'rib chiqish, jamoatchilik bilan bevosita va ochiq muloqot

oʻrnatish, shaxsan qabul qilishni muntazam ravishda oʻtkazish, shu jumladan, jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini joylarga borib qabul qilishni belgilangan muddatda va tartibda amalga oshirish.

Inspeksiya markaziy apparati xodimlari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksional vazifalarga ham ega boʻlishi mumkin.

26. Quyidagilar Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari boshliqlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etish;

oʻz faoliyatiga tegishli prognoz koʻrsatkichlarga soʻzsiz erishishni taʼminlash boʻyicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

Inspeksiyaning yigʻilish qarorlari, Inspeksiya boshligʻi va uning oʻrinbosari buyruqlari va topshiriqlarining oʻz vaqtida va sifatli bajarilishini taʼminlash;

xodimlarni belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ular bilan mehnat shartnomasini bekor qilish;

Oʻzbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi Qonuni talablariga muvofiq korrupsiya va boshqa qonunbuzarliklarning oldini olish choralarini koʻrish, shuningdek, qonunchilikni takomillashtirish boʻyicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish yoʻli bilan ularni aniqlash, tahlil qilish, ularni yuzaga keltiruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

xodimlar tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari asosida tasdiqlangan Inspeksiya xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya etilishini nazorat qilish;

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-maydagi 322-son qarori bilan tasdiqlangan Maʼmuriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar va maʼmuriy huquqbuzarlik yoʻli bilan maʼnaviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetkazilgan shaxslarni markazlashtirilgan hisobga olish tartibi toʻgʻrisidagi nizom talablari asosida ishlarni amalga oshirish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini Oʻzbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari toʻgʻrisida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi toʻgʻrisidagi namunaviy nizomga muvofiq koʻrib chiqish, jamoatchilik bilan bevosita va ochiq muloqot oʻrnatish, shaxsan qabul qilishni muntazam ravishda oʻtkazish, shu jumladan, jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini joylarga borib qabul qilishni belgilangan muddatlarda va tartibda amalga oshirish.

Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari boshliqlari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksional vazifalarga ham ega boʻlishi mumkin.

## **6-bob. “Suvxoʻjaliknazorat” inspeksiyasi rahbarlarining javobgarligi**

27. Inspeksiya boshligʻi:

Inspeksiya yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi;

ushbu Nizomning 24-bandida koʻrsatilgan oʻz funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javobgardir.

28. Boshliq o‘rinbosari:  
mutasaddilik qilinadigan xodimlar tomonidan Inspeksiyaga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi;

ushbu Nizomning 25-bandida ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javobgardir.

29. Markaziy apparat xodimlari:

markaziy apparat xodimlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi;

ushbu Nizomning 26-bandida ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javobgardir.

30. Hududiy boshqarmalar:

hududiy boshqarmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi;

ushbu Nizomning 27-bandida ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javobgardir.

## **7-bob. “Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish**

### **“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi rahbariyati**

31. Inspeksiyaga Vazirlar Mahkamasining taqdimnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan boshliq rahbarlik qiladi.

Inspeksiya boshlig‘ining o‘rinbosari O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirining taqdimnomasiga ko‘ra Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

32. Inspeksiya boshlig‘i:

Inspeksiya markaziy apparati xodimlarini ishga qabul qiladi va ular bilan mehnat shartnomasini bekor qiladi;

Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari rahbarlarini O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri bilan kelishgan holda ishga qabul qiladi va ular bilan mehnat shartnomasini bekor qiladi;

o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha o‘tkaziladigan Vazirlik hay‘ati majlislarida, yig‘ilishlarida belgilangan tartibda ishtirok etadi.

Inspeksiya boshlig‘i qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

33. Diagnostika markazi o‘ta muhim gidrotexnika inshootlarining texnik holati ishonchligini diagnostika qiladi, joylarda o‘rganadi, naturada kuzatuv ishlarini amalga oshiradi va kadastrlarni yuritish ishlarini, shuningdek, xavfsizlik deklaratsiyasi ekspertizasini amalga oshiradi.

Diagnostika markazi faoliyati Inspeksiya tomonidan suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlar va boshqa buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq bajarilgan ishlar hamda ko‘rsatilgan xizmatlardan olinadigan daromadlar hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.



### **“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi markaziy apparati xodimlarining hududiy boshqarmalar bilan o‘zaro hamkorligi tartibi**

34. Inspeksiya markaziy apparati xodimlarining hududiy boshqarmalar bilan o‘zaro hamkorligi Inspeksiya boshlig‘i va uning o‘rinbosari tomonidan ta‘minlanadi.

35. Inspeksiya markaziy apparati xodimlari:

hududiy boshqarmalarga hamda Diagnostika markaziga rahbariyat topshiriqlarini yetkazadi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi;

Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari hamda Diagnostika markaziga ularning bevosita faoliyati bo‘yicha so‘rovlar yuboradi hamda ularning ijro etilishini nazorat qiladi;

Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari hamda Diagnostika markazi faoliyatini tekshiradi va o‘rganadi, umumlashtiradi, uni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi;

Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari hamda Diagnostika markazi faoliyatini tashkil etish va faoliyati natijalari to‘g‘risida hisobot va axborot materiallari, statistika ma‘lumotlari va boshqa ma‘lumotlarni to‘plashni tashkil etadi;

Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari hamda Diagnostika markazi ish rejalarini tahlil qiladi, ularning faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirishga doir choralar ko‘radi;

Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari hamda Diagnostika markazidan tushgan takliflarni ko‘rib chiqadi.

36. Hududiy boshqarmalar va Diagnostika markazi:

Inspeksiya rahbariyati topshiriqlari bajarilishi haqida axborot beradi;

o‘z faoliyati natijalari to‘g‘risidagi hisobotlarni belgilangan tartibda va muddatlarda Inspeksiya markaziy apparatiga taqdim qiladi;

gidrotexnika inshootlari xavfsizligini ta‘minlash va suvdan foydalanishga qaratilgan takliflarni Inspeksiya markaziy apparatiga yuboradi.

37. Inspeksiyaning markaziy apparati, Diagnostika markazi, yuridik va jismoniy shaxslar hamda hududiy boshqarmalar o‘rtasida kelib chiqadigan nizoli holatlar, birinchi navbatda, Inspeksiya boshlig‘i topshirig‘iga binoan tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda Inspeksiya boshlig‘i o‘rinbosari tomonidan, agar masala hal etilmasa, unda bevosita Inspeksiya boshlig‘i tomonidan ko‘rib chiqiladi.

### **“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasining respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi**

38. Inspeksiya o‘z vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

39. Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari o‘z vakolatlari doirasida respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining hududiy bo‘linmalari bilan hamkorlik qiladi.

### **“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi huzuridagi Ekspertlar kengashi**

40. Inspeksiya huzurida O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Suv xo‘jaligi

vazirligi, Energetika vazirligi va boshqa vakolatli idoralarning rahbariyatidan iborat bo‘lgan Ekspertlar kengashi tuziladi.

Inspeksiya boshlig‘i lavozimiga ko‘ra Ekspertlar kengashi raisi hisoblanadi.

Ekspertlar kengashi tarkibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ekspertlar kengashi o‘z ishini Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan nizom asosida amalga oshiradi.

### **8-bob. “Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta‘minlash, uning xodimlari mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirish**

41. Inspeksiyaning xodimlari mehnatiga haq to‘lash va moddiy-texnik ta‘minoti O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag‘lari va budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.

Inspeksiya xodimlarining uzluksiz ish stajiga – oliy ma‘lumot mavjud bo‘lganda, mutaxassislik bo‘yicha lavozimlardagi, shu jumladan, rahbarlik lavozimlari hamda boshqa turdagi kasblardagi ish vaqti kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan Inspeksiya xodimlari moddiy rag‘batlantiriladi.

Inspeksiya Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan o‘z xodimlarini rag‘batlantirish bo‘yicha takliflarni har yili 1-iyulga qadar O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligiga kiritadi.

### **9-bob. Yakunlovchi qoidalar**

42. Inspeksiya qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qayta tashkil etiladi va tugatiladi.

43. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.